Korreksion pedagogika: ilmiy-metodik asoslar va ta'lim sifatiga ta'sir mexanizmlari.....	1843
Mirzakobilov Askarali Davronovich	
Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari	1846
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashni ijtimoiy psixologik xususiyatlari	1851
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna	
Bolalar bog'langan nutqni rivojlantirishda badiiy adabiyotlarning muhim o'rni	1855
Abidova N. Z., Karimova Z. A.	
The Emergence of Speech Competence and its Role in 21St Century Competencies	1859
Rajabova Muniskhon Rajab qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari (ona tili fani misolida).....	1863
Norboyeva Farangiz Alisher qizi	
Global raqamli qaramlik (telefon, internet, ijtimoiy tarmoq)ning talabalarning ruhiy holatiga ta'siri	1868
Babayeva Nazira Asatullayevna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyati	1872
Majidov Jasur Baxtiyarovich	
Yosh futbolchilarda stress va asabiylikni boshqarish.....	1877
O.T. Baxromov	
Структура и содержание когнитивных компетенций в профессиональной подготовке педагога.....	1880
Каримова Фарида Наильевна	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish.....	1884
Muqimov Ma'ruf Olimovich	
Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari	1887
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish	1892
Ibrohimova Nilufar Qobil qizi	
Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе	1897
Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна	
Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan	1902
Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna	
Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish.....	1906
Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich	
Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi"	1909
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaring rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....	1914
X. N. Agaliyeva	
Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati	1920
Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash	1924
Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari. 1930	
Umarova Nafisa Ahmatillovna	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish	1937
Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlar.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества	2204
Иногамова Д. О.	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksida – logopedik korreksiya.....	2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari	2214
Ma’rifat Abdullayeva	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA EKO-ART LOYIHALARI

Mamatova Xusnora Eshquvatovna

MTTDMQTMOI

“Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrası katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) eko-art (ekologik san’at) loyihalarini amalga oshirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Eko-art yondashuvi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga nisbatan mas’uliyat va g’amxo’rlik tuyg’ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyihalar tabiiy hamda ikkilamchi xomashyolardan, jumladan, quruq barglar, novdalar, toshlar, plastmassa idishlar va qog’oz chiqindilaridan foydalanigan holda ijodiy faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi. Tadqiqot jarayonida eko-artning bolalarning nozik motorikasi, estetik idroki, tanqidiy fikrlashi hamda muammolarni hal etish ko’nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, MTT sharoitida eko-art dasturini joriy etish bo’yicha metodik tavsiyalar, loyiha bosqichlari va pedagogik integratsiya yo’llari asoslab berildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – eko-art orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda barqaror rivojlanish g’oyalarini shakllantirish va ularni tabiatni asrovchi faol shaxslar sifatida tarbiyalashdan iborat.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT), eko-art, ekologik ta’lim, tabiiy materiallar, ikkilamchi xomashyo, ijodiy rivojlanish, loyiha faoliyati, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, san’at terapiyasi.

Abstract: This paper examines the theoretical foundations and practical significance of implementing eco-art (ecological art) projects in preschool educational organizations (PEOs). The eco-art approach aims to foster children’s ecological culture and to develop a sense of responsibility and care for nature. The projects involve creative activities using natural and secondary raw materials, including dry leaves, twigs, stones, plastic containers, and paper waste. The study analyzes the effectiveness of eco-art in enhancing preschool children’s fine motor skills, aesthetic perception, critical thinking, and problem-solving abilities. In addition, methodological recommendations for introducing eco-art programs in PEO settings are presented, outlining project stages and methods of pedagogical integration. The primary objective of the study is to instill the principles of sustainable development in preschool children through eco-art and to educate them as environmentally responsible individuals.

Key words: preschool educational organization (PEO), eco-art, environmental education, natural materials, secondary raw materials, creative development, project-based activity, sustainable development, ecological culture, art therapy.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы и практическое значение реализации проектов эко-арта (экологического искусства) в дошкольных образовательных организациях (ДОО). Подход эко-арта направлен на формирование экологической культуры у детей, развитие чувства ответственности и заботы по отношению к природе. Проекты включают творческую деятельность с использованием природных и вторичных материалов, таких как сухие листья, ветки, камни, пластиковые бутылки и бумажные отходы. В ходе исследования анализируется эффективность эко-арта в развитии мелкой моторики, эстетического восприятия, критического мышления и навыков решения проблем у детей дошкольного возраста. Также представлены методические рекомендации по внедрению программы эко-арта в условиях ДОО, включая этапы реализации проекта и пути педагогической интеграции. Основная цель исследования заключается во внедрении идей устойчивого развития у детей дошкольного возраста и воспитании экологически ответственных граждан.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация (ДОО), эко-арт, экологическое образование, природные материалы, вторичное сырьё, творческое развитие, проектная деятельность, устойчивое развитие, экологическая культура, арт-терапия.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolarning chuqurlashuvi har bir soha, ayniqsa, ta’lim sohasidan yuqori darajadagi e’tiborni talab qilmoqda. Atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish shaxs rivojlanishining eng dastlabki bosqichlaridan – maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanishi zarur. Bolalik davri (3–7 yosh) shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim poydevor vazifasini o’taydi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilot-

lari (MTT) tarbiyalanuvchilarga tabiatni asrash g'oyalarini yetkazishning samarali yo'llarini izlashda dolzarb vazifalarni amalga oshirmoqda.

An'anaviy ekologik ta'lim usullari bolalarda hissiy bog'liqlikni hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda har doim ham yetarli samara bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayoniga san'at va ijodkorlikni integratsiyalash orqali ekologik masalalarni yanada ta'sirchan yetkazish imkonini beruvchi eko-art (ekologik san'at) yondashuvi katta istiqbollarga ega. Eko-art bolalarga tabiiy elementlar (barglar, yog'och, toshlar) va ikkilamchi xomashyolardan (qoldiq qog'oz, plastmassa, mato qiyqimlari) foydalangan holda ijodiy faoliyat olib borish imkonini yaratadi. Ushbu jarayon bolalarda tabiat go'zalligini estetik idrok etishni kuchaytiradi, chiqindilarni qayta ishlatish orqali esa ularni mas'uliyatli iste'molchi bo'lishga o'rgatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) ekologik bilimlar berishda amaliyot va ijodiy faoliyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash muhim muammo hisoblanadi. Bolalar tabiatni nafaqat o'rganishlari, balki uni asrash va unga yangi hayot bag'ishlash jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlari zarur. Eko-art loyihalari aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ular nazariy ekologiyani amaliy ijodkorlik bilan uyg'unlashtiradi. Mazkur yondashuv MTT sharoitida bolalarni ekologik muammolarni hal etishga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu ishning asosiy maqsadi – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eko-art loyihalarini samarali tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, loyihalarning bolalarda ekologik madaniyat va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishdagi ta'sirini amaliy misollar asosida yoritib berishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eko-art loyihalarini tadqiq etishda aniq va izchil metodologiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodologiya natijalarning ishonchligini ta'minlash, ularning amaliy ahamiyatini oshirish hamda soha rivojiga munosib hissa qo'shish imkonini beradi. Avvalo, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali eko-art tushunchasi va uning maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni aniqlab olinadi. Ushbu bosqichda ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda ilgari amalga oshirilgan loyihalar materiallari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Bu jarayonda eko-art loyihalarining samarali jihatlari, uchraydigan muammolar hamda ularning yechimlari aniqlanadi.

Tadqiqot asosan sifatli (qualitative) metodlarga tayanadi, chunki mazkur yondashuv bolalarning individual tajribalarini, tarbiyachilarning fikr va qarashlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Dastlab, eko-art faoliyatlari jarayonida bolalarning ishtiroki, faolligi, ijodiy yondashuvi, jamoada ishlash ko'nikmalari hamda ekologik tushunchalarni o'zlashtirish darajasi tizimli ravishda kuzatiladi. Ushbu kuzatishlar faoliyat davomida bir necha marotaba amalga oshirilib, bolalarning rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Metodologiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida tarbiyachilar, muassasa rahbarlari hamda zaruratga ko'ra ota-onalar bilan suhbatlar va guruhli muhokamalar tashkil etiladi. Ushbu jarayonda loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar va qo'llab-quvvatlovchi omillar, shuningdek, bolalarda ekologik ong va ijodiy salohiyat rivojlanishining kechishi haqida chuqur ma'lumotlar to'planadi. Zarur hollarda bolalar bilan ham muloqot olib borilib, ularning fikrlari rasm chizish yoki qisqa hikoya tuzish orqali aniqlanadi.

Ishchi tadqiqot (action research) prinsiplari asosida jarayon bosqichma-bosqich tahlil qilinadi va har bir faoliyat yakunida natijalar muhokama etilib, keyingi bosqichlarda milliy hamda zamonaviy yutuqlardan foydalangan holda muayyan o'zgartirishlar kiritiladi. Tarbiyachilar mazkur jarayonda faol ishtirok etib, o'z amaliy faoliyatiga tanqidiy yondashadilar. Tadqiqot davomida bolalar tomonidan yaratilgan san'at asarlari ham tahlil qilinadi. Ushbu asarlar orqali bolalarning ekologik mavzularni qanchalik anglagani, qayta ishlangan materiallardan foydalanish usullari hamda eko-madaniyatga bo'lgan munosabati baholanadi.

Butun tadqiqot jarayonida etik me'yorlarga qat'iy rioya qilinadi, ota-onalardan rozilik olinadi hamda bolalarning shaxsiy huquqlari va xavfsizligi ustuvor hisoblanadi. Barcha faoliyatlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos va qiziqarli shaklda tashkil etiladi. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eko-art loyihalarini o'rganish metodologiyasi mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, sifatli kuzatish va suhbatlar o'tkazish, eko-art faoliyatini amalda kuzatish hamda bolalarning san'at asarlarini tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv bolalar va tarbiyachilar tajribasiga tayanib, eko-art loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam amaliy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eko-art (ekologik san'at) ekologik muammolarga e'tiborni qaratish, atrof-muhit bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni anglash va tabiatni muhofaza qilish g'oyalarini ilgari surishga qaratilgan zamonaviy san'at yo'nalishi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) sharoitida eko-art bolalarni san'at orqali tabiat bilan bevo-



sita muloqotga jalb etadi hamda ularda 3R tamoyilini – kamaytirish (Reduce), qayta ishlatish (Reuse) va qayta ishlash (Recycle) ko'nikmalarini amaliy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bolalarning ekologik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eko-art loyihalarida an'anaviy badiiy materiallar o'rniga asosan ikki turdagi xomashyodan foydalaniladi. Tabiiy materiallarga barglar, urug'lar, novdalar, qum, toshlar, qobiqlar, patlar va quritilgan gullar kiradi. Ikki-lamchi xomashyo sifatida esa plastmassa idishlar qopqoqlari, latta qiyqimlari, karton qutilar, eski CD-disklar hamda qog'oz parchalaridan foydalaniladi. Mazkur materiallar bilan ishlash jarayoni bolalarda tejamkorlik va tabiat resurslariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Eko-art nafaqat bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularning har tomonlama kamol topishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu faoliyat orqali bolalarda mustaqil fikrlash, estetik did, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish hamda jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Eko-art loyihalarini MTTda samarali tashkil etish ma'lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dastlab tayyorgarlik bosqichida mavzu tanlanib, u mavsumiy xususiyatlar, bayramlar yoki o'rganilayotgan ekologik muammo bilan bog'lanadi. Shu jarayonda bolalar va ota-onalar ishtirokida sayrlar va ekskursiyalar davomida tabiiy materiallar yig'iladi yoki uy sharoitida chiqindi materiallar saralanadi. Xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, o'tkir, zaharli yoki bolalar uchun xavfli buyumlardan foydalanish qat'iy nazorat qilinadi.

Amaliy bosqichda bolalar yosh xususiyatlari va qiziqishlariga ko'ra kichik guruhlariga ajratiladi. Tarbiyachining minimal ko'rsatmalari asosida bolalar o'z g'oyalarini mustaqil amalga oshiradilar. Ushbu jarayonda erkin tanlov va tajriba o'tkazish imkoniyati keng bo'lib, bu bolalarning ijodiy faolligini oshiradi.

Yakuniy bosqichda yaratilgan asarlar MTT hududida yoki guruh xonasida "Eko-galereya" shaklida namoyish etiladi. Bolalar o'z ishlarini taqdim etib, qaysi materiallardan foydalanganliklari va tanlangan mavzu-ning mazmuni haqida fikr bildiradilar. Bu jarayon ekologik g'oyalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy loyiha sifatida "Yashil haykalchalar" loyihasini keltirish mumkin. Ushbu loyihada bolalar bo'sh plastmassa butilkalar, karton qutilar va yelimdan foydalanib turli jonivorlar shaklini yasaydilar, so'ng ularni quritilgan barglar, maysalar, urug'lar yoki maydalangan tuxum po'choqlari bilan bezaydilar. Mazkur loyiha chiqindilarni san'at asariga aylantirish va tabiat bilan bog'liqlikni kuchaytirishning yorqin namunasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eko-art maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani amalga oshirishning samarali va kompleks pedagogik vositasi hisoblanadi. Eko-art loyihalari orqali bolalarda chiqindi materiallarning qiymati haqida amaliy tushuncha shakllanib, 3R tamoyiliga asoslangan ekologik ong rivojlanadi. Bolalar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni ijodiy maqsadlarda qayta qo'llash ko'nikmalarini egalaydilar.

Tabiiy va ikkilamchi materiallar bilan ishlash jarayonida bolalarning nozik motorikasi va taktil sezgilari sezilarli darajada rivojlanadi, shuningdek, loyihaviy faoliyat ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Eng muhimi, eko-art bolalar va tabiat o'rtasida mustahkam hissiy va estetik bog'liqlikni shakllantirib, tabiatni asrash zarur bo'lgan muhim qadriyat sifatida idrok etishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) eko-art loyihalarining keng joriy etilishi maktabgacha yoshdagi bolalarni kelajakda ekologik mas'uliyatli va ijodkor shaxslar sifatida tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur loyihalar pedagogik jarayonni boyitib, ta'lim mazmunining samaradorligi, qiziqarliligi hamda zamonaviy talablarga mosligini ta'minlaydi. Eko-art orqali bolalar "tabiatni asrash" kabi murakkab tushunchalarni nazariy emas, balki amaliy va shaxsiy tajriba asosida o'zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1992. (Ta'lim-tarbiya va axloqiy qarashlar uchun).
2. Qodirova, R. M., & Akramova, N. M. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Shakirova, Sh. I. Ekologik ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari. Toshkent, 2020.
4. Yarmuhamedov, M. J. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. Toshkent, 2015.
5. Di Leo, J. H. Children's Drawings as Diagnostic Aids. New York: Brunner/Mazel, 1973. (Bolalar ijodiyoti va rivojlantirishiga doir).
6. Marinicheva, O. N. Eko-art: ekologicheskoye vospitaniye doshkolnikov sredstvami khudozhestvennogo tvorchestva. Moskva: Sfera, 2019.
7. Tixonova, O. V. Proyektynaya deyatel'nost v detskom sadu: razvitiye tvorcheskikh sposobnostey. Sankt-Peterburg: Rech, 2017. (Loyiha faoliyatiga oid).
8. Tischler, B. Nature Art: Using Natural Materials in Creative Projects. London: Thames & Hudson, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.